

TA'LIM SOHASIDAGI O'ZBEKISTON – JANUBIY KOREYA DAVLATLARI O'RTASIDAGI ALOQALAR TRANSFORMATSIYASI

Muhriddin Turahonovich Alohanov

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
o'qituvchisi. muhriddin.history@gmail.com*

Rezyume: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Janubiy Koreya bilan ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorligining rivojlanish bosqichlari, hamkorlik o'rnatilgan mamlakat, hamkorlik natijalari va kelajak rejalarining tahlil qilib beriladi. Shuningdek, O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, islohat, sivilizatsiya, fan, mamlakat, madaniyat, olim, akademiya, hamkorlik, qonun, hukumat, manfaat,*

Jahondagi mamlakatlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni o'rnatish va rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining tarkibiy qismidir. Ikki tomonlama hamkorlik masalalarini o'rnatish, nafaqat ikki mamlakat manfaatlariga xizmat qiladi, balki shu aloqalar o'rnatilgan davlatlarda istiqomat qilayotgan xalqlar o'rtasida do'stlik, bir-birini hurmat qilish va do'stona aloqalarni o'rnatilishiga xizmat qiladi. Ana shunday davlatlardan biri Koreya Respublikasidir.

Mazkur aloqa ayni vaqtda o'z tarixiga hamda hozirgi kunda O'zbekistonda yashab kelayotgan Koreys millatiga mansub fuqarolar bir necha yuz ming nafarni tashkil qilib ular o'zoq yillardan beri O'zbekiston tuprog'ida yashab kelmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, ikki xalqning bir-biriga bo'lgan iliq munosabati, mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikka ijobiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. O'zaro hamkorlikning dastlabki davrlaridan to shu kunga qadar aloqalar muntazam ravishda rivojlanib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Koreya Respublikasi bilan O'zbekiston Respublikasi strategik sheriklardir. Janubiy Koreya yuksak darajada taraqqiy etgan, ulkan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, innovatsion va intellektual salohiyatga ega davlat sifatida dunyoda e'tibor qozongan. Ochiqlik, o'zaro anglashuv va manfaatlarga hurmat asosida qaror topgan hamkorligimizni yuksak qadrlaymiz”[1].

Aynan Koreya Respublikasi bilan o'rnatilgan aloqalarning afzalligi shundaki Koreya Respublikasi mustaqil rivojlanish yillarida zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va ta'lim sohasida yangicha iqtisodiy qiyofa kasb etdi va jahonning eng taraqqiy etgan mamlakatiga aylandi. So'nggi yillarda Janubiy Koreya va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi ta'lim sohasidagi, madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqalar yo'nalishi, tartibi, qoidasi va darajasi har ikki davlat rahbarlarining rasmiy uchrashuvlarida qabul qilingan rasmiy hujjatlarda o'z aksini topdi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasidagi aloqalar 2006 va 2014 yilda qabul qilingan “Strategik sheriklikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish

to'g'risida"gi qo'shma deklaratsiya va boshqa muhim hujjatlar asosida izchil rivojlanmoqda.[2] Strategik hamkorlik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyada, xususan ta'lim sohasiga oid bir qancha bitimlar imzolanishi to'g'risida kelishuvlar amalga oshirildi. Jumladan, Toshkent davlat aviatsiya instituti va Xanso universiteti o'rtasida hamkorlikni amalga oshirish to'g'risidagi bitim, Toshkent kimyo texnologiyalari instituti va Xanso universiteti o'rtasida hamkorlikni amalga oshirish to'g'risidagi bitim, Xorazm Ma'mun akademiyasi va Geonggi universiteti o'rtasida hamkorlik memorandumni amalga oshirish to'g'risidagi bitimlar[3].

Bu bitimlar imzolanishi natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarini axborotlashtirish» loyihasini amalga oshirish uchun Koreya Respublikasi Hukumati tomonidan beriladigan imtiyozli kreditdan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida» 2006 yil 27 martdagi PQ-312-son qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim muassasalari Koreya Respublikasining 30 dan ortiq ilmiy tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik yo'lga qo'ygan. Xususan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida xalqaro standartlarga mos yuqori malakali mutaxassislarni, birinchi navbatda dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, axborot tizimi va kompyuter tarmoqlarini boshqarish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlash;

respublikaning oliy ta'lim tizimiga o'quv jarayonini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani joriy etish, ochiq axborot-ta'lim muhitining rivojlanishiga ko'maklashish;

respublikada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida uzluksiz ta'lim va malaka oshirish tizimini shakllantirishga ko'maklashish, ilmiy tadqiqot va ta'lim muassasalari, dasturiy mahsulot ishlab chiquvchilar, ishlab chiqarish korxonolari, sanoat va infratuzilma tarmoqlari hamda boshqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iste'molchilari o'rtasida o'zaro mustahkam hamkorlikni o'rnatish;

iqtisodiyot real sektori tarmoqlarining aniq ehtiyojlarini hisobga olgan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi xalqaro standartlarga mos maqsadli ta'lim dasturlarini tashkil etish nazarda tutilgan. Ushbu amalni amalga oshirish uchun sharoit yaratish maqsadida 2014 yil 24 martda "Toshkent shahrida Inha universitetini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2155-sonli qarori qabul qilindi.[4] Bugungi kunda universitetda mingdan ziyod talabalar axborot texnologiyalari, injiniring va logistika yo'nalishida tahsil olmoqda.

Bu esa ta'lim va boshqa sohalarda ikki tomonlama munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilmoqda. Jumladan, 2017 yil 22 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga rasmiy tashrifi, Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning 2019 yil 18-21 aprel kunlari O'zbekiston Respublikasiga Davlat tashrifi O'zbekiston — Janubiy Koreya hamkorligi tarixidagi g'oyat muhim voqealardan biri bo'ldi va ikki mamlakatning o'zaro munosabatlarini "alohida strategik sheriklik" darajasiga olib

chiqdi.

Davlat rahbarlari ishtirokida do'stona va amaliy muhitda o'tkazilgan samarali muzokaralar hamda tadbirlar oliy darajadagi faol siyosiy muloqotni yanada davom ettirish muhimligini tasdiqladi, bu esa ikkala mamlakat o'rtasidagi o'zaro ishonch va ochiqlikni saqlab qolishning belgilovchi omili hisoblanadi.

Bu uchrashuvlardaga kelishuvlar natijasida ta'lim sohasida yangi qadamlar tashlandi. Jumladan, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq:

maktabgacha ta'lim, arxitektura va dizayn sohasida, shuningdek, talab yuqori bo'lgan ta'limning boshqa yo'nalishlarida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

maktabgacha ta'lim, arxitektura va dizayn tizimiga, shuningdek, talab yuqori bo'lgan ta'limning boshqa yo'nalishlariga zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani joriy etish, ochiq axborot-ta'lim muhitini rivojlantirishga ko'maklashish;

mavjud muammolar va mehnat bozorining ehtiyojlarini inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim, arxitektura va dizayn sohasida, shuningdek, talab yuqori bo'lgan ta'limning boshqa yo'nalishlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish;

respublikada maktabgacha ta'lim, arxitektura va dizayn tizimini, shuningdek, talab yuqori bo'lgan ta'limning boshqa yo'nalishlarini rivojlantirishga, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari, boshqa korxonalar va tashkilotlar o'rtasida mustahkam o'zaro hamkorlikni o'rnatishga ko'maklashish maqsadida 2018 yil 2 iyul kuni "Toshkent shahrida Puchon universitetini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3821-sonli qarori qabul qilindi[5].

O'zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o'rtasida alohida strategik sheriklik to'g'risidagi Qo'shma Deklaratsiya siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy-texnik, madaniy-gumanitar va ta'lim sohalarida ikkala mamlakat o'rtasidagi o'zaro hamjihatlikni chuqurlashtirishga qaratilgan O'zbekiston-Janubiy Koreya munosabatlari tarixida yangi bosqichni boshlab berdi.

Koreya Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga Davlat tashrifi davomida imzolangan ikki tomonlama bitimlar va erishilgan ahdlashuvlarning to'la-to'kis va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident qarori qabul qilindi. Bundan ko'rinib turibdiki, ikki mamlakat ham aloqalarni yanada yaxshilash muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Har ikki mamlakat rahbarlarining tashriflari davomida mamlakatlar uchun foydali bo'lgan ko'plab shartnoma va bitimlar imzolandi. Bu ikki mamlakat o'rtasida ta'lim sohasidagi aloqalar son va sifat jihatdan rivojlanib yangi bosqichga chiqib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xalq so'zi 2019 yil 19 aprel № 79, 1-bet
2. O'zbekiston-Janubiy Koreya: strategik sheriklik munosabatlarida yangi bosqich // Xalq so'zi. 2017 yil 24 noyabr. № 237. 1-bet
3. <http://lex.uz/docs/974184>
4. <http://lex.uz/docs/2440275>
5. Sun Don Ki. Cooperation between the Republic of Uzbekistan and South Korea: the establishment and prospects of economic and cultural relations. Candidate of Historical Sciences, Dissirtation. - Tashkent, 2000. p.103-104-107.
6. In the new century - partners // The newspaper Narodnoe slovoyu 1999. October 8.
7. http://uza.uz/oz/politics/presidents-toshkent-sha-rida-koreys-madaniyat-va-sanat-uyi-20-04-2019?sphrase_id=1428506.
8. Xan V.S. History of Korea. - Tashkent: Bakrtia press, 2013, p. 95
9. Alohanov M O'zbekiston va janubiy koreya davlatlari o'rtasida ta'lim sohasidagi hamkorlik rivojlanishining tarixiy tahlili. Tamaddun nuri. 2019. 5-son.
10. M.A'loxanov O'zbekiston – Janubiy Koreya: ta'lim sohasidagi hamkorlikning yangi istiqbollari. O'tmishga nazar 2 - maxsus son. T. 2020. 34-bet.
11. Nosirova Miss, A. R. (2020). MECHANISMS OF PREVENTION OF RELIGIOUS XENOPHOBIA AND ISLAMOPHOBIA. The Light of Islam, 2020(1), 43-51.
12. Islamov, Z., Rakhimjonov, D., & Nosirova, A. (2020). Religious xenophobia as a factor in cause of extremism and terrorism. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 417-425.
9. Yuldasheva, M. T. (2021). Study The Anthropometric Parameters Of People Living In The Same Area And Engaged In The Same Activities. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 2(1), 167-171.
10. Юлдашева, М. Т., & Абдулазизова, Ш. (2021). Структурные изменения слизистой оболочки бронхов при воздействии инсектицидов.
11. Юлдашева, М. Т. (2016). ВЗАИМОСВЯЗЬ ПОСТНАТАЛЬНОГО РОСТА ТИМУСА С СОСТОЯНИЕМ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ. In Материалы конференции отражают результаты исследований, посвященных инновациям в образовании и медицине и охватывают широкий спектр образова-тельных и научных направлений. Опубликованные работы представляют огромную ценность для широкого круга практикующих врачей: терапевтов, хирургов, инфек-ционистов, акушер-гинекологов, стоматологов, отоларингологов и др. (p. 206).
12. Turdialievna, Y. M. (2016). Effect on the experimental hypothyroidism morphological and morphometric parameters of thymus. European science review, (11-12), 110-112.
13. Карабаев, М. К., Абдуманнонов, А. А., & Махмудов, Н. И. (2013). Об

интеллектуализации медицинских информационных систем. Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Серия: Естественные и технические науки, (9-10), 60-65.

14. Усманов, Б. С., Махмудов, Н. И., Исмаилов, Ж. Т., & Дадабаев, Х. Р. (2009). Тактика лечения больных с повреждениями магистральных сосудов нижних конечностей. Вестник экстренной медицины, (3), 49-51.

15. Дехканов, К. М., Игамбердиева, Г., & Махмудов, Н. И. (2022). ПРОФИЛАКТИКА И ЛЕЧЕНИЕ РАНЕВОЙ ИНФЕКЦИИ ПРИ ОТКРЫТЫХ ПЕРЕЛОМАХ КОСТЕЙ ОПОРНО-ДВИГАТЕЛЬНОГО АППАРАТА. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 388-394.

16. Махмудов, Н. И., Карабоев, М. К., Маманабиев, Ю. Т., & Игамбердиева, Г. (2022). ИНФОРМАЦИОННО-КОМПЬЮТЕРНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ РАБОТЫ ОТДЕЛА ПЕРЕЛИВАНИИ КРОВИ В ФФРНЦЭМП. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 382-387.

17. Махмудов, Н. И., Сайидалиев, С. С., & Каттаханова, Р. Ю. (2019). ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ДИАГНОСТИКЕ ПОВРЕЖДЕНИЙ ПОДЖЕЛУДОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ У ДЕТЕЙ. In Инновации в медицине. Материалы I международной научно-практической конференции-Махачкала, 2019.-Том. II.-232 с. (р. 37).

18. Авезова, Д. (2022). статья Методика преподавания языка иностранным студентам. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 25(25).

19. Abdurasulovna, B. M. (2022). Clinical Features of Rheumatoid Arthritis in Patients at the Age of Older 60 Years Old. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 650-655.

20. Авезова, Д. (2022). МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ЯВЛЕНИЯ В РУССКОМ СЛОВООБРАЗОВАНИИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).

21. Авезова, Д. (2022). КАКИЕ ГРАММАТИЧЕСКИЕ КАТЕГОРИИ ЯВЛЯЮТСЯ ОБЩИМИ ДЛЯ ЧАСТЕЙ РЕЧИ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ?. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).

22. Авезова, Д. (2022). ОСНОВНЫЕ РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ СТРУКТУРОЙ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО СЛОВА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).

23. Farkhodovna, K. F., Rakhmatulloevna, N. U., & Abdurasulovna, B. M. (2022). ETIOLOGY OF CHRONIC RHINOSINUSITIS AND EFFECTIVENESS OF ETIOTROPIC TREATMENT METHODS (LITERATURE REVIEW). Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 377-381.

24. Авезова, Д. (2022). статья Составные части и их выражение в творчестве Абдуллы Каххора. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).

25. Авезова, Д. (2022). Spirituality Маънавият инсонни комилликка етаклайди. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).

26. Авезова, Д. (2022). Инсоният тарихида БУЮК ЛЕВ ТОЛСТОЙ. ЦЕНТР

НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 17(17).

27. Авезова, Д. (2022). статья Стихи Есенина были его судьбой. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).